TARIX FANINI O‘QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV.

Hoshimov To‘lqin Ro‘ziboyevich, Jizzax Sambhram universiteti NTM o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarix darslarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondoshuv va uning ahamiyati ochib berilgan.



Annotation

This article reveals the competence approach and its importance in teaching history.

Аннотация

В данной статье раскрывается компетентностный подход и его значение в преподавании истории.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez surhatlarda jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayoniga umumta’lim fanlarini o’qitishning printsipial yangi metodologiyasi sifatida kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limni joriy etish siyosiy, umumdavlat va didaktik ahamiyatga ega bo’lgan hodisa hisoblanadi.

Albatta, eng avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi bugungi kun talabi, jamiyat ehtiyoji, fan va texnikaning rivojlanish tendensiyalari asosida ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturlariga bog’liq.

XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta’lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida ta’limda kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy ehtibor qaratilmoqda. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o’quvchilarda egallangan bilim, ko’nikma va malakalarini o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo’llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarining davlat ta’lim standartlaridagi tayanch kompetentsiyalarning tahlili bugungi kunda mazkur masalaga qarash va yondashuvlar har mamlakatning ta’limdan ko’zlagan maqsadi, imkoniyati va shart-sharoitlaridan kelib chiqqanligini ko’rsatadi.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o’quvchilarda bilim, ko’nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Shunga ko’ra, o’qitish metodlari ham o’zgaradi.

“Kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o’rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo’llangan bo’lib, tilni ishlatish jarayonida ― faoliyatga yo’naltirilgan bilim, ko’nikma va malakalar majmui sifatida‖, ta’lim sohasida esa “kompetentsiyaviy yondashuv” sifatida talqin etilgan bo’lib, ta’limda natijaviylikni ko’rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan . O’zbek tilining izohli lug’ati‖da kompetentsiya so’zi quyidagicha izohlangan:

―Kompetentsiya – (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo’lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi‖.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – egallangan bilim, ko’nikma va malakalarni o’z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo’llay olish layoqatini

shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim bo’lib, o’quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo’lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o’z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog’lom raqobat hamda umummadaniy ko’nikmalarni hosil qiladi.

Kompetentsiyalar ikki asosiy turga: tayanch va xususiy kompetentsiyalarga bo’linadi.

Tayanch kompetensiyalar insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o’z o’rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimi, o’z sohasi, kasbi bo’yicha raqobatbardosh bo’la olish ko’nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi.

Kommunikativ kompetensiya —muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur mahlumotlarni izlab to’a olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo’lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O’zini o’zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o’z-o’zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o’qib-o’rganish, kognitivlik ko’nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o’z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko’nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo’layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o’zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo’lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr- oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo’lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog’lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish kabi layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetentsiyalar umumta’lim fanlari orqali o’quvchilarda shakllantiriladi.

Bundan tashqari, ta’limda har bir o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida o’quvchilarda, shu fanning o’ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetentsiyalar ham shakllantiriladi. Jumladan, tarix fanni o’rganishda o’quvchilar tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish, tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.

1. Tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi quyidagi komponentlardan iborat:

- O’zbekiston va jahon tarixining eng qadimgi davridan bugungi kunga qadar insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan muhim voqea va jarayonlar haqida ma’lumot bera oladi;
- tarixning davrlarini taqqoslay oladi, tahlil qiladi, baholaydi va xulosa qiladi, yozma ma’lumot bera oldi;
- voqea va jarayonlarni tarixiy davr nuqtai nazaridan tahlil qiladi, baho beradi, xulosa chiqaradi, munosabat bildiradi;
- davlatlarning tashkil topishi, davlat shakli, davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy- siyosiy jarayonlar, ichki va tashqi munosabatlar, harbiy salohiyat, insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o’rni haqida yozma ma’lumot bera oladi;
- tarix fanidan olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog’lay oladi.

2. Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi quyidagi komponentlardan iborat:

XX asr boshlaridan bugungi kungacha kechgan tarixiy voqelikni bayon qilishda muhim bo’lgan tarixiy toponomik atamalar mazmunini tushuntira oladi;

tarixiy jarayon va voqealar haqida ma’lumot berishda qo’shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

tarixiy-badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma’lumotlardan foydalanishda va ularga munosabat bildirishda axborot madaniyatiga rioya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshi’ilayotgan chuqur ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta’minlash, umumiy o’rta ta’lim tizimida faoliyatli yondashuvga asoslangan ta’lim bugungi kun talablariga mos kelmayotganligi sababli umumta’lim fanlarini o’qitishning prinsipial yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari, o’quv-metodik majmualarni ishlab chiqish va joriy etishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining" 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida " gi 8-sonli farmoni. 10. 2019 yil

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "jamiyat hayotida madaniyat va san'at sohasining o'rni va ahamiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni

3. Abdullaev D. N. O'zbekiston tarixini yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning asosiy vazifasi sifatida o'rganish/ / hayot davomida ta'lim olish: barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida uzluksiz ta'lim. 2015. № 13. S. 439-441.

4. Tojikiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining ijtimoiy-madaniy vakolatlarini shakllantirish. Diss. ... sham. ped. fanlar. O'tish:saytda harakatlanish, qidiruv

5. Babushkina L. E. pedvus talabalarining ijtimoiy-madaniy vakolatlari: xarakterli va shakllantirish texnologiyalari//Sibir pedagogika jurnali 2011. № 8. o'tish: saytda harakatlanish, qidiruv

6. Barabanov Vv, Tarix Rossiyaning zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitida o'quv mavzusi sifatida// Universum: Herzen universiteti Axborotnomasi, 2010. № 1.S. 64- 70.

7. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy tayyorlash jarayonida tarixiy- madaniy vakolatlarni shakllantirish / / zamonaviy pedagogik ta'lim muammolari 2018

№ 58-2. P. 40-43.

8. Gurenko O. I. politexnik muhit sharoitida pedagogika universiteti talabalarining etno-madaniy malakasini shakllantirish. Muallif. diss. sham. ped. fanlar. Xarkov, 2005. 18 bilan.